

## YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020- yilning yanvar-iyunida Buxoro viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YaHM) hajmi joriy narxlarda 13 085,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019- yilning yanvar-iyuni bilan taqqoslaganda 101,0 % ga o'sdi. YaHM deflyator indeksi 2019- yil yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 114,1 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMning shakllanishida Buxoro viloyatining qo'shgan hissasi 5,1 % ga yetdi.



### Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


		Mlrd. so'm		2019- yil yanvar- iyuniga nisbatan, % da
		2019- yil yanvar- iyun	2020- yil yanvar- iyun	
	<b>I. YaHM</b>	<b>11 353,1</b>	<b>13 085,4</b>	<b>101,0</b>
	<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	10 362,4	12 591,2	101,2
	Mahsulotlarga sof soliqlar	990,7	494,2	98,9
	<b>Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>10 362,4</b>	<b>12 591,2</b>	<b>101,2</b>
	<b>Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi</b>	4 036,5	5 149,3	103,3
	<b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	2 996,5	3 606,9	100,2
	sanoat	1 931,3	2 397,3	98,0
	qurilish	1 065,2	1 209,6	104,2
	<b>Xizmatlar</b>	3 329,4	3 835,0	99,5

		Mlrd. so'm		2019- yil yanvar- iyuniga nisbatan, % da
		2019- yil yanvar- iyun	2020- yil yanvar- iyun	
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	846,0	948,0	97,8
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	664,6	708,5	98,2
	boshqa xizmat tarmoqlari	1 818,8	2 178,5	100,7

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 6 786,3 ming so'm va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,4 % ga kamaydi.



**Yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi va o'sish sur'atlari**



Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo`shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 96,2 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,8 % ini tashkil etdi.

Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligining YaHMning tarmoqlar bo`yicha tarkibidagi ulushi 1,9 % punktga ko`paydi va hisobot yilida 40,9 % ni tashkil etdi. Sanoat tarmog`ining ulushi 19,0 % dan iborat bo`lib, 0,4 % ga ko`paydi, qurilishniki esa 0,7 % punktga tushdi va 9,6 % ga yetdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 30,5 % ni tashkil qildi va o`tgan yilning mos davri bilan taqqoslanganda 1,6 % punktga pasaydi.




**Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha YaHM tarkibi**  
(jamiga nisbatan % da)

		2019- yil	2020- yil
	<b>I. YaIM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo`shilgan qiymati	91,3	96,2
	Mahsulotlarga sof soliqlar	8,7	3,8
	<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo`shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
	<b>Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi</b>	<b>39,0</b>	<b>40,9</b>
	<b>Sanoat (qurilishni qo`shgan holda)</b>	<b>28,9</b>	<b>28,6</b>
	sanoat	18,6	19,0
	qurilish	10,3	9,6
	<b>Xizmatlar</b>	<b>32,1</b>	<b>30,5</b>
	savdo, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlar	8,2	7,5

		2019- yil	2020- yil
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,4	5,6
	boshqa xizmat tarmoqlari	17,5	17,4





## Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiq nisbatan % da)



YaHMning o`shishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o`shish sur`atlari bilan bog`liqdir. O`shish sur`atlari qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 103,3 % , qurilishda – 104,2 % ni tashkil etdi. Sanoat tarmog`i (98,0 %) va xizmatlar sohasida (99,5 %) ishlab chiqarish (xizmat ko`rsatish) hajmining kamayishi kuzatildi. Xizmatlar sohasi tarkibida savdo, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlarda 97,8 % , tashish va saqlash, axborot va aloqada 98,2 % kamayish, boshqa xizmat tarmoqlarida 100,7 % o`shish kuzatildi.




### Yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha mutlaq o`shish sur`atlari (o`tgan yilning mos davriga nisbatan % da)




2020- yilning yanvar-iyunida iqtisodiyotning “Qurilish”, “Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi” kabi tarmoqlari YaHMning mos ravishda 0,4 f.p. va 1,2 f.p. ga o`shishiga hissa qo`shdi. Sanoat tarmog`i va xizmatlar sohasi mos ravishda - 0,3 f.p. va - 0,2 f.p. salbiy hissa qo`shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning kamayishi hisobiga YaHM - 0,1 f.p. ga kamaydi.



**2020- yil yanvar-iyun oylarida YaHM o'lishida tarmoqlarning hissasi  
(jamiga nisbatan % da)**



2020- yil yanvar-iyunda YaHM deflyatori indeksi 2019- yil yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 114,1 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 126,7 % va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 123,4 % qayd etildi.



**Yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat  
turlari bo'yicha deflyator indeksi  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**

